**2023-yil 1-mavsum yakuni bilan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni g'olib dep topilgan loyihalar to'g'risida**

# XISOBOTI

**Assalomu alaykum hurmatli Muzaffar Yazdonkulovich!**

**Hurmatli deputatlar va Sessiya qatnashchilari!**

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli xamda Xalq deputatlari tuman kengashining 2021 yil 05-maydagi "Budjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yunaltirish tartibi to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan.

Tumanda 2023 yil 1-mavsum uchun "Tashabbusli budjet" jamg'armasiga 7 245,0 mln so'm mablag' yunaltirildi.

Qabul qilingan qaror hamda Nizomga ko'ra, jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirishning yangi tartibi joriy etilganligini inobatga olib, shuningdek Davlat budjeti ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni fuqarolarga sifatli tarzda yoritib borilishini ta'minlash maqsadida "Ochiq budjet" axborot portalining birinchi bosqichi joriy yil 02 fevraldan 26 fevralga qadar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining openbudget.uz rasmiy veb sayti orqali mavjud mahalliy muammolarni bartaraf etish maqsadida tumanda istiqomat qiluvchilar uchun ahamiyatga ega bo'lgan jami 195 ta takliflar bildirildi.

Ushbu takliflar ishchi komissiya a'zolari tomonidan tadbirlarni so'mmalariga aniqlik kiritilib xulosalar taqdim etildi va 26 fevral kunidan 18 martgacha modernizatsiya jarayonidan 53 ta taklif belgilangan mezonlarga muvofiq deb qabul qilindi.

18 martdan 07 aprelga qadar 53 ta taklif uchun ovoz berish bosqichida eng kup ovoz yig'ilgan takliflar portal tomonidan avtomatik tarzda 10 ta g'oliblar aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vaziri o'rinbosari A.Karimovning Tuman hokimiga yozgan 10-apreldagi №11/7-04906 sonli xatiga asosan Id raqamlari 00129584008, 00129584008 bo'lgan atraksion qurish bilan bog'liq 2 ta takliflarni g'oliblar ro'yxatidan chiqarilishi shuningdek ushbu loyixalar uchun ajratilishi nazarda tutilgan mablag'lar doirasida to'plangan ovozlar soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichni egallagan keyingi loyihalarni moliyalashtirish chorasini ko'rish tavsiya etilgan.

Paxtachi tumani O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining openbudget.uz rasmiy veb saytidan avtomatik tarzda aniqlangan g'oliblardan 2 ta atraksion qurish bo'lgan takliflar o'rniga keyingi ko'p ovoz olgan loyihalarga "Tashabbusli budjet" jamg'armasining 7 240,0 mln so'm mablag'larni moliyalashtirish uchun ruxsat berishingizni so'raymiz.

***E'tiboringiz uchun raxmat!***

***Paxtachi tuman Iqtisodiyot va Moliya bo'limi boshligi v.b*** **U.Arnakulov**

Сканировано с CamScanner

## Paxtachi tuman bo'yicha 2023-yil 1-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha "MANZILLI RO'YXAT"

ming so'mda

| № | G'olib taklif ma'lumotlari | | | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Haqiqatda ajratilgan mablag' | Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri) | Buyurtmachi tashkilot | Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan xujjatlar | Xarid qilish tartib taomili turi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Taklif ID raqami | taklif manzili | Qisqacha mazmuni | Balansda saqlovchi | To'plagan ovozlari soni | | | | | | |
| | "Fuqarolar tashabbusi Jamg'armasi"da shakllangan mablag' | | | | | | 7 245 000,0 | | | | |
| 1 | 00144501008 | Guliston mfy | Toshkenjayev Oilaviy poliklinikasi 1968-yil qurilgan bulib xozirgi kunda tamir talab, shu binoni qayta tamirlash va zamonaviy oilaviy poliklinikasi kurinishiga keltirish va moddiy texnik bazasini yaratish | Tuman Tibbiyot birlashmasi | 6365 | 1 200 000,0 | 1 200 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 2 | 00122283008 | Zarafshon mfy | Zarafshon mahallasida joylashgan 31 maktabning moddiy texnik bazasini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirish uchun informatika xonasiga 20dona zamonaviy kompyuterlar va ular uchun jihozlar, 5 dona interaktiv smart doskalar, 20 dona smart televizorlar, kranshteynlar, 5 dona rangli printerlar, nusxa ko'chirish apparati, proyektorlar, 10dona marker doska, ish yuritish uchun 5 dona noutbook va planshet, maishiy jihozlar (muzlatgich va konditsioner) ovoz kuchaytirish apparatlari, turli xildagi tok uzatish qurilmalari, orgtexnikalar hamda badiiy va o'quv adabiyotlar xarid qilish | Tuman Xalq ta'limi bo'limi | 4783 | 300 000,0 | 300 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 3 | 00129724008 | Istiqlol mfy | Ziyovuddin yoshar bogini Obodonlashtirish kukalamzorlashtirish va kucha chiroklar kuyish kerak | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | 4622 | 1 200 000,0 | 1 200 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 4 | 00154931008 | Shamsnazar mfy | Boymat qishlog'ining 2,5 km asosiy ko'chasiga asfalt qoplamasi yotqizish. 2,1 km ichki yo'llariga shag'al to'shamasi yotqizish | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | 3169 | 950 000,0 | 950 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi" DUK | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 5 | 00150262008 | Istiqlol mfy | Paxtachi tumanidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktab moddiy texnika bazasini yangilash (Virtual laboratoriya jihozlari, sinf xonalariga kuzuv kameralari va maktabni uzliksiz elektor toki bilan ta'minlash uchun 30 KV quyosh panillarini o'rnatish. Sinf xonalarini elektr tokisiz ishlaydigan aylanma issiqlik qozoni (katyol) tizimi bilan isitishni shakllantirish) | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | 3129 | 100 000,0 | 100 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 6 | 130929008 | Taraqqiyot mfy | 28-maktabga 20 kv Quyosh batariyasini o'rnatish kerak | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | 2538 | 70 000,0 | 70 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 7 | 00138134008 | Bog'oloni mfy | Bog'oloni mfy Bahor ko'chasiga 100 dona tungi yoritgich chiroqlari o'rnatish va Bahor ko'chasiga yelektir energiyaasini pastligi sababli yelektir energiyaasini to'lik ta'minlab berish uchun Transfarmator o'rnatish | Tuman Elektir korxonasi | 2082 | 200 000,0 | 200 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 8 | 00142905008 | Gulshan mfy | Paxtachi tumani hududida bir qismini elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish | Tuman Elektir korxonasi | 1959 | 600 000,0 | 600 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 9 | 00114659008 | Tadbirkor mfy | Tadbirkor MFYdagi aholini qiynab kelayotgan elektr energiyasi, sifatsiz yog'och ustunlar, kam quvvatli taransformatorlar hozirgi kunda ehtiyoji oshib borayotgan aholini qoniqtirmayotganlini inobatga olib, 6 dona Transformator 250 kVt , 150 dona beton ustun, 3 km sеtprovod kabel, 55 dona ko'cha yoritish chirog'i va qo'shimcha jihozlari bilan birga. | Tuman Elektir korxonasi | 1858 | 240 000,0 | 240 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 10 | 00141172008 | Chorgusha mfy | Chorgo'sha mahallasi Mustaqillik ko'chasining eskirgan simyog'ochlarini yangi 60 ta zamonaviy temirbeton ustunlarga almashtirish va ko'cha chiroqlari o'rnatish | Tuman Elektir korxonasi | 1572 | 200 000,0 | 200 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |

Сканировано с CamScanner

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ...516008 | Jona mfy | Jona mahallasiga temir beton stolbuva 140 dona, kabel 2 km, trasfarmotor 3 dona 60 talik, Sim AES-50 lik 2km, yoritqich chiroq 30 dona , xomid chiroq uchun 30 dona. | Tuman Elektir korxonasi | 1532 | 210 000,0 | 210 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 12 | 00123466008 | Dung mfy | Guzalkent, Qadriyat, Nurli hayot, Guzalkent 1. Oltinsoy kuchasiga beton stolba to'liq jamlanmasi bilan, Oltinsoy kuchasiga transfarmator o'rnatish kerak. | Tuman Elektir korxonasi | 1503 | 250 000,0 | 250 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Hududiy elektr tarmoqlari AJ" Samarqand hududiy filiali | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 13 | 00146871008 | Amirobod mfy | Amirabod MFY da joylashgan 12-maktab binosiga kuyosh panili urnatish | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | 1218 | 70 000,0 | 70 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi | belgilangan tartibda tog'ridan-tog'ri | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 14 | 00132894008 | Saroy mfy | Saroy maxallasiga yangi maxalla binosini qurish kerak | Tuman Maxalla va nuroniylar hni qullab quvvatlash bo'limi | 1061 | 450 000,0 | 450 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| 15 | 00128908008 | Qarnobota mfy | Qarnabota va Chashma mahallalarini tutashtiruvchi Yangi hayot ko'chasidan MFY, 45- maktab va musiqa maktabiga boruvchi 830 metr Qarnabota qabristoniga olib boruvchim 780 metr yo'llar, asosiy ko'chalar Barkamol ko'chasining 390 metri va Qaxramon ko'chasining 350 metr jami 2350 metr yo'lni asvaltlashtirish. | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | 800 | 1 200 000,0 | 1 200 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi" DUK | loyiha-smeta xujjatlari | Eng yaxshi takliflarni tanlash |
| | X | | **Jami ajratilgan mablag'** | | X | 7 240 000,0 | 7 240 000,0 | X | X | X | X |
| | | | **Taqsimlanmagan mablag'** | | | | 5 000 | | | | |

**Tuman hokimi birinchi o'rinbosari v.b** **B.Ergashov**

**Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i v.b** **U.Arnakulov**

Сканировано с CamScanner

*Туман (шаҳар) бюджетларини жамоатчилик*
*фикри асосида шакллантирилган тадбирларга йўналтириш*
*тартиби тўғрисидаги намунавий низомга*

*6-илова*

**Пахтачи тумани бўйича ўтказилган ташаббусли бюджет жараёни якунларига кўра ғолиб бўлган ID 00122283008 лойиҳани амалга ошириш бўйича харид қилинадиган товар (хизматлар)**

**Реестри**

Минг сўм

| № | Товар(хизмат) номи | сони | Бозор нархи | суммаси |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Рангли принтер (EPSON M-105) | 2 | 3000000 | 6000000 |
| 2 | Компьютер жамланмаси (MP Desktop prog3+HP) | 2 | 8000000 | 16000000 |
| 3 | Интерактив доска (Interaktiv panel 65" LED65H6A) | 5 | 24000000 | 120000000 |
| 4 | Кондиционер (Avalon AVl -12HQ WI-FI) | 2 | 7000000 | 14000000 |
| 5 | Нусха кўчириш аппарати (HP lazer Jet M236d) | 3 | 3500000 | 10500000 |
| 6 | Ноутбок (Lenova THINKPAD X280. 12.5" FULL HD 15-825OU, 8GB 512SSD) | 2 | 11000000 | 22000000 |
| 7 | Ноутбок (HP 15s-fq3009ur 15.6 Pentium N6000 4 Gb DDR4 256Gb SSD) | 3 | 5000000 | 15000000 |
| 8 | Планшет (Samsung Galaxy TabA8 3/32 black) | 2 | 3000000 | 6000000 |
| 9 | Синф хоналар учун кузатув камералари | 20 | 1400000 | 28000000 |
| 10 | Музлатгич ( Artel HD 3454RN ) | 3 | 2000000 | 6000000 |
| 11 | Телевизор(Artel TV ART UA43H3401) | 12 | 3200000 | 38400000 |
| 12 | Овоз кучайтириш жамланмаси ( Akustik tiim MT-1265) | 1 | 2500000 | 2500000 |
| 13 | Телевизор(Artel TV ART UA43H3401) | 4 | 1700000 | 6800000 |
| 14 | Краништейн (Катта) | 12 | 170000 | 2040000 |
| 15 | Краништейн (Кичик) | 4 | 100000 | 400000 |
| 16 | Бадиий адабиётлар | | | 4500000 |
| 17 | Турли хил ток ўтказгичлар | | 1860000 | 1860000 |
| | **Жами:** | | | **300000000** |

31-мактаб директори: Ф. Садинов

Ташаббускор: Ғ.Ражабов

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI 31-U O'RTA TA'LIM MAKTABI

Сканировано с CamScanner

*Туман (шаҳар) бюджетларини жамоатчилик*

*фикри асосида шакллантирилган тадбирларга йўналтириш*

*тартиби тўғрисидаги намунавий низомга*

**Пахтачи тумани бўйича ўтказилган ташаббусли бюджет жараёни якунларига кўра ғолиб бўлган ID 00150262008 лойиҳани амалга ошириш бўйича харид қилинадиган товар (хизматлар)**

## Реестри

Минг сўм

| № | Товар(хизмат) номи | сони | Бозор нархи | суммаси |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Рангли принтер (EPSON-805) | 1 | 3000000 | 3000000 |
| 3 | Интерактив доска (Interaktiv panel 65" LED65H6A) | 1 | 20000000 | 20000000 |
| 4 | Кондиционер (Avalon AVl -12 HQ ) | 1 | 5000000 | 5000000 |
| 5 | Нусха кўчириш аппарати (CANON MF-4100) | 2 | 3000000 | 6000000 |
| 6 | Ноутбок (Lenova THINKPAD X280. 12.5" FULL HD 15-825OU, 8GB 512SSD) | 1 | 5000000 | 3000000 |
| 7 | Ноутбок (HP 15s-fq3009ur 15.6 Pentium N6000 4 Gb DDR4 256Gb SSD) | 1 | 3000000 | 3000000 |
| 8 | Синф хоналар учун кузатув камералари | 10 | 500000 | 5000000 |
| 9 | Овоз кучайтириш жамланмаси (Столни микрафон 2 та дистансавой миркрафон 3 та ) | 1 | 6650000 | 6650000 |
| 10 | Монтажний кабил (Қозонхона ва компютир хоналарни мавжуд қуёш панилига мантаж қилишга) | 1200 м | 3000 | 3600000 |
| 11 | Ўқитувчи стуллари | 70 | 65000 | 4550000 |
| 12 | 2 та синф хоналарига парта стул жамланмалари | 30 | 250000 | 7500000 |
| 13 | Ўқитувчилар хонаси учун айланма стол 50 кишилик | 1 | 8200000 | 8200000 |
| 14 | Турли хил ток узатгичлар резитка ва бошқалар | 1 | 500000 | 500000 |
| 15 | Доска | 3 | 500000 | 1500000 |
| 16 | Синф хоналар учун ламинат қопламаси (паркет) | 150 кв | 60000 | 9000000 |
| 17 | Виртуал лабаратория хонаси учун акфа ромлари. | 20 кв | 600000 | 12000000 |
| 18 | Сув глубина насос(150 мм ва 15 м сув шланк) | 1 | 1500000 | 1500000 |
| | **Жами** | | | **100000000** |

**22-мактаб директори:** **И.Холиқов**

**Таклиф муаллифи:** **У.Утаназаров**

Сканировано с CamScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

100017, Toshkent sh., Istiqlol ko‘chasi 29-uy, Tel.: (998 71) 239-15-69, 239-12-52
www.imv.uz, info@imv.uz

77e091ec

2023 - йил 10 - апрель 11/7-04906 - сон

**Пахтачи тумани ҳокими**
**М. Хамдамовга**

**Ҳурматли Музаффар Яздонкулович,**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармонига асосан тасдиқланган “**2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси**”нинг 21-мақсадига мувофиқ – келгуси беш йилликда ҳар бир туман ва шаҳар бюджетлари маблағларининг белгиланган миқдорларини **аҳолининг таклифлари асосида** жойлардаги **долзарб муаммоларни** ечишга сарфланишига алоҳида эътибор қаратилган.

Шу билан бирга, Давлат раҳбарининг 2022 йил 4 август куни кенгайтирилган тарзда ўтказилган видеоселектор йиғилишида **аҳоли билан бамаслаҳат қилинадиган** лойиҳалар кўламини кенгайтириш юзасидан кўрсатмалари берилиб, ташаббусли бюджет жараёнидаги фуқаролар иштирокига алоҳида тўхталиб ўтилди.

Шунинингдек, мазкур жараёнларини ташкил этишни тартибга солиш юзасидан Олий Мажлис Сенати Кенгашининг 2021 йил 22 апрелдаги КҚ-213-IV-сон қарори билан тасдиқланган Низомга кўра:

лойиҳалар — туман (шаҳар)да мавжуд ижтимоий аҳамиятга эга муаммоларни ҳал этиш мақсадида **фуқаролар томонидан** илгари сурилиши;

**жамоавий муаммоларни ҳал этишга** қаратилган бўлиши (хиёбонлар, болалар майдончаси барпо этиш, ички йўлларни ва ижтимоий соҳа объектларини таъмирлаш, экологияни яхшилаш, ичимлик суви ва оқова сув билан таъминлаш, кўча чироқларини ўрнатиш (таъмирлаш) ва шу кабилар);

идоравий ёки шахсий шунингдек, **тадбиркорлик фаолиятини** қўллаб-қувватлаш хусусиятларига эга бўлмаслиги белгилаб қўйилган.

Ташаббусли бюджет жараёнининг 2023 йил 1-мавсуми якунларига кўра, Пахтачи туманида тумандаги **Зиёвуддин ёшлар боғини тартибга келтириш** ҳамда турли ҳил **атракцион ўйингоҳлар** билан жиҳозлаш юзасидан учта лойиҳа (ID: 00129584008, 00129626008, 00129724008) ғолиб деб топилган.

Ушбу лойиҳалардан Очиқ бюджет ахборот порталида **00129584008** ва **00129584008** рақамлар билан рўйхатга олинган лойиҳалар тадбиркорлик фаолиятини юритиш билан боғлиқ бўлганлиги сабабли кенг жамоатчилик ва оммавий ахборот воситалари ўртасида кескин эътирозлар юзага келишига сабаб бўлмоқда.

Шу муносабат билан, **тадбиркорлик фаолияти ҳусусиятига** эга бўлганлиги сабабли **00129584008** ва **00129584008** лойиҳаларни молиялаштириш масаласини Халқ депутатлар туман Кенгашида кўриб чиқилишини ҳамда “ғолиблар” рўйхатидан чиқарилишини шунингдек, ушбу лойиҳалар учун ажратилиши назарда тутилган маблағлар доирасида тўпланган овозлар сони бўйича юқори кўрсаткични эгаллаган кейинги лойиҳаларни молиялаштириш чораларини кўришингиз тавсия этилади.

**Вазир ўринбосари** **А.Каримов**

77e091ec